




**2021- yil yanvar-sentabr
oylarida
Xizmatlar sohasining
rivojlanishi**

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi – milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilmalilligini, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqt ni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 957,6** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **2 111,9** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **120,5 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)

8 957,6
mlrd. so'm

120,5 %

2 111,9
mlrd. so'mga

• Xizmatlar hajmi

• O'sish sur'ati

• Hajmning o'sishi

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	8 957,6	120,5
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	368,7	118,4
Moliyaviy xizmatlar	1 500,4	123,6
Transport xizmatlari	2 181,2	122,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 956,0	115,0
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	337,7	105,8
Savdo xizmatlari	2 836,9	112,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	207,7	122,3
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	405,0	160,2
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	167,0	139,3
Ijara xizmatlari	243,7	139,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	183,2	124,8
Shaxsiy xizmatlar	187,8	127,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	81,9	108,0
Boshqa xizmatlar	256,4	129,9

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan past ko'rsatkich



Nisbatan yuqori ko'rsatkich




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **31,7 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori sur'atlar transport (**24,4 %**), moliyaviy xizmatlar (**16,7 %**), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlarida (**4,5 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **145,0 %.**

Me'morchilik sohasidagi xizmatlarida keskin pasayish kuzatilgan – **28,9 %.**

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **31,7 %** ni tashkil etib, bu esa **2 836,9 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **2 287,0 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **33,4 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2 287,0

Xizmatlar hajmi,
mlrd. so'm

2 836,9

99,5

O'sish sur'ati, % da

112,1

2020- y. yanvar-sentabr


2021- y. yanvar-sentabr

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uch qismini, aniqrog'i **72,6 %** ini tashkil etdi.

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **77,1 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-sentabr oylarida)

2021- yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 500,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ularning hajmi **1 187,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **16,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **17,3 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **313,2** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **23,6 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ularning o'sish sur'ati **145,0 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,9 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,0 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **3,1 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



**Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **92,4 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,4 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,2 %**.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

(2021- yilning yanvar-sentabr oylarida)

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **368,7 mlrd. so'm** darajasida belgilandi.


2020- yilga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati **118,4 %** ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turi hajmi **305,5 mlrd. so'm** yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiylajmiy hajmining **4,5 %** iga teng bo'lgan.
O'sish sur'ati esa **103,8 %** ni tashkil etgan.

Hajmning o'sishi



Xizmatlar hajmi

Jami hajmdagi ulushi

2021- yil yanvar-sentabr


Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-sentabr oylarida ularning ulushi **91,3 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da

**2020- y.
yanvar-sentabr**

**2021- y.
yanvar-sentabr**



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **94,1 %** ni tashkil etgan.


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamонавиј ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **405,0 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiyligi **4,5 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati **160,2 %** ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-sentabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi G'ijduvon (**25 446,9** mln. so'm), Jondor (**17 257,4** mln. so'm), Qorako'l (**11 837,6** mln. so'm), Shofirkon (**10 729,5** mln. so'm), Buxoro (**10 282,5** mln. so'm) va Romitan (**9 152,7** mln. so'm) tumanlari hamda Buxoro shahrida (**281 885,8** mln. so'm) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi
xizmatlar hajmi, mln. so'm
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**



Taqqoslash uchun: 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida Buxoro shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **208 506,6** mln. so'mga teng bo'lgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

273,7
mlrd. so'm

2020- y.
yanvar-sentabr

337,7
mlrd. so'm

2021- y.
yanvar-sentabr

Xizmatlar hajmi

80,6 %

105,8 %



O'sish sur'ati

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **25,2** mlrd. so'mga ortgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi



2021- y. yanvar-sentabr

2020- y. yanvar-sentabr



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash
bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-sentabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **87,7 %** bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2020- yil yanvar-sentabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **91,9 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr


Dastlabki ma'lumotlar




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalar, kosmetologiya klinikalar, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyat xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2021- y.
Yanvar-sentabr




2020- y.
Yanvar-sentabr



2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



2021-yilning yanvar-sentabr oylarida sog'liqni saqlash sohasida xizmatlarning yuqori o'sishi Buxoro shahrida **149,6 %** ni tashkil etdi. Nisbatan past o'sish sur'ati Kogon shahrida kuzatildi – **113,3 %**.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-sentabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
Buxoro viloyati *)	8 957,6	120,5	103,0
Olot	334,2	114,1	102,3
Buxoro	519,2	116,3	103,7
Vobkent	592,3	167,0	102,6
G'ijduvon	1 171,2	115,5	103,7
Jondor	521,4	115,6	102,8
Kogon	307,6	125,2	103,5
Qorako'l	397,2	114,6	102,6
Qorovulbozor	152,8	105,9	91,5
Peshku	454,8	109,4	103,5
Romitan	478,4	114,1	102,8
Shofirkon	390,5	113,0	102,0
shaharlar:			
Buxoro sh.	3 315,5	123,5	103,3
Kogon sh.	322,5	119,2	102,8

**) shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)**



2021- yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumi hajmidagi eng katta ulushni Buxoro shahri tashkil etdi – **37,0 %** (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida – **56,5 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Qorovulbozor tumanida – **1,7 %** (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida – **1,6 %**) qayd etildi.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmnning o'sishi

1 031,8
ming so'mga



O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 575,5** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **118,9 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **3 543,7** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **101,6 %** da qayd etilgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**Xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan
korxona va
tashkilotlar soni**



**2020- yilning
mos davriga
nisbatan ular
sonining o'sishi**


**Ularning
umumiyligi
sonidagi
ulushi**

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **63,9** %, sanoat **15,9**%, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **10,8** % ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **9,4** % ga to'g'ri keldi.

**2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning tarkibi
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Taqqoslash uchun: 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **63,6** % ni, sanoat **15,4** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **11,0** % ni, qurilish **10,0** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**43,5 %**).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **12,1 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi **8,7 %** ga yetdi.

Sog'lijni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi **3,8 %** ni tashkil etdi.

Savdo – 43,5

**Boshqa turdag'i
xizmatlar – 30,2**

**Yashash va ovqatlanish
– 12,1**

Tashish va saqlash – 8,7

Sog'lijni saqlash – 3,8

Axborot va aloqa – 1,7

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,7 %** ga teng bo'ldi.


2021- yil yanvar-sentabr

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2021- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **66,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiyl sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **83,1 %** ga to'g'ri keldi.

1- oktabr
holatiga

2020- y.

2021- y.

83,1 %

85,0 %